

## O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

2026-yil yanvar-aprel

- I. Sanoat ishlab chiqarishi
- II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi
- III. Bajarilgan qurilish ishlari
- IV. Chakana savdo tovar aylanmasi
- V. Tashqi savdo aylanmasi
- VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
- VII. Korxonalar va tashkilotlar soni



### I. Sanoat ishlab chiqarishi

2026-yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalaridan tomonidan **394 674,0** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107,8 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **85,8 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **7,0 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **6,7 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,5 %** ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bu – ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,5 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **3,3 %** ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **6,4 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **6,4 %** ga oshganligidir.

Qayta ishlash sanoati hajmlarining o'sishiga boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish hajmining oshishi (2025-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **2,0 b.**), shuningdek, boshqa transport uskunalari ishlab chiqarishning o'sishi (**1,7 b.**) sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, metallurgiya sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmi kamaygan (**96,6 %**).



### II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi

2026-yil yanvar-aprel oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **2,5 %** ni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **4,0 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasiga **1,63** foiz punkt (f.p.) ta'sir qilgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari ushbu davrda **1,2 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichga **0,39** f.p. ta'sir qilgan, xizmatlar esa **1,9 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni **0,51** f.p. oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

2025-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **142,4 %** ni ("Sug'urta va moliyaviy xizmatlar"), quyi chegarasi esa **100,3 %** ni ("Ta'lim sohasidagi xizmatlar") tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-aprel oylarida yig'ma iste'mol narxlari indeksining o'sishiga "Oziq-ovqat mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar" bo'limidagi narx o'zgarishlari eng katta hissa qo'shdi – **1,56** f.p. yoki umumiy ta'sirning **61,7** foizi. "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar" hamda "Uy-joy xizmatlari, suv, elektr energiyasi, gaz va boshqa yoqilg'i turlari" bo'limlarida umumiy ko'rsatkichga har biri **0,15** f.p. qo'shimcha ta'sir ko'rsatdi. "Sug'urta va moliyaviy xizmatlar" bo'limida narxlarning oshishi hisobiga yig'ma iste'mol narxlari indeksi yana **0,12** f.p. ga ko'tarildi. Boshqa bo'limlarning jami ta'siri **0,55** f.p. ni tashkil etdi.



### III. Bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-aprel oylarida **84 439,5** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,1 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining **21 627,9** mlrd so'mi yoki **25,6 %** yirik korxonalar va tashkilotlar tomonidan, **39 614,7** mlrd so'mi yoki **46,9 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan, **23 196,9** mlrd so'mi yoki **27,5 %** norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.



### IV. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **165 865,8** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,9 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **26,1 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **17,8 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **21,3 %** ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **68,6 %** ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **13,6 %** ulush bilan **22 564,8** mlrd so'mni tashkil etdi.



### V. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **26 332,0** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1 437,0** mln AQSh dollariga yoki **5,8 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **9 973,8** mln AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,8 %** ga tushdi. Import **16 358,2** mln AQSh dollariga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **26,7 %** ga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **65,3 %** ni tashkil etdi, shu jumladan sanoat mahsulotlari – **14,4 %**, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar – **8,1 %**, har xil tayyor mahsulotlar – **7,9 %** va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – **7,5 %** bo'ldi.

Import tarkibida asosiy ulushni mashinalar va transport uskunalari (**33,7 %**), sanoat tovarlari (**14,1 %**), shuningdek, kimyoviy moddalar va ularga o'xshash mahsulotlar (**12,4 %**) tashkil etdi.



### VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2026-yilning yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **406 368,7** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **16,6 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga asosiy omil savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining **13,9 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri – **3,6 f.p.**), moliyaviy xizmatlarning **23,8 %** ga (o'sishdagi ta'siri **3,6 f.p.**), transport xizmatlarining **15,0 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,6 f.p.**), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning **14,0 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,3 f.p.**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **22,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,6 f.p.**) o'sishi bo'ldi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo sohasida ko'rsatilgan xizmatlar (**101 768,7** mlrd so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati – **113,9 %**)ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (**69 143,7** mlrd so'm, o'sish sur'ati **114,0 %**)ga, transport xizmatlari (**66 910,2** mlrd so'm, o'sish sur'ati **115,0 %**)ga va moliyaviy xizmatlar (**65 559,0** mlrd so'm, o'sish sur'ati **123,8 %**)ga to'g'ri keldi.



## VII. Korxonalar va tashkilotlar soni

2026-yil 1-may holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **490,9** mingtani (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar **420,9** mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (**110 753**ta), Toshkent (**48 349** ta), Samarqand (**42 691** ta), Farg'ona (**38 726** ta), Qashqadaryo (**31 572** ta), Buxoro (**29 877** ta) va Xorazm (**28 566** ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – **158 483** ta, sanoat sohasida – **61 436** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **37 826** ta, qurilish sohasida – **31 489** ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – **32 266** tani tashkil etdi.

2026-yil yanvar-aprel oylarida respublikada **31,5** mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan **30,9** mingtasi kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

2026-yil 1-may holatiga ko'ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **19 490** tani tashkil etdi. Ularning **4 427** tasi qo'shma korxonalar va **15 063** tasi xorijiy korxonalardan iborat.

Tayyorlash uchun mas'ul:  
Statistika ma'lumotlarini tarqatish  
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63  
Kontaktlar: [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)  
Tel.: +998 71 203-80-00 (1045)

